

GDCAU loyihasi

Co-funded by the
Erasmus+ Programme
of the European Union



Loyha nomi: MARKAZIY OSIYO UNIVERSITETLARI UCHUN YASHIL BITIM

Loyha qisqartmasi: GDCAU

Loyihaning umumiy qiymati **800 000 yevro** bo'lib, shundan **60 000 yevro** TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetiga ajratilgan.

GDCAU loyihasi Germaniya, Slovakiya, Avstriya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlaridan 13 ta davlat va xususiy universitetlarning yangi hamkorligini taklif etadi. Loyha doirasida universitetlar Yashil kelishuv (Green Deal) doirasidagi texnologik, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlariga aylanishi ko'zda tutilgan.

GDCAU quyidagi 4 ta strategik maqsad orqali tanloving barcha maqsadlariga hissa qo'shadi:

1. Ishtirokchi universitetlar salohiyatini mustahkamlash hamda Yashil kelishuv kun tartibini aks ettiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash;

2. Atrof-muhit barqarorligi sohasida yetarli bilim va ko'nikmaga ega mutaxassislarni tayyorlash;
3. Yashil kun tartibini amalga oshirishda kompaniyalarga ko'maklashish uchun universitetlar va biznes o'rtaсидаги hamkorlikni kuchaytirish;
4. Universitetlar o'rtaсидаги hamkorlikni rivojlantirish va ularning ijtimoiy ta'sirini oshirish maqsadida **Ta'lif, tadqiqot, innovatsiya va jamoatchilik bilan ishlashga asoslangan "Yashil Kelishuv Markazi" (GDCentre)** tashkil etish.

Ushbu maqsadlarga quyidagi faoliyatlar orqali erishiladi:

- bilimlarni yig'ish va almashish
- qo'shma o'quv dasturlarini ishlab chiqish
- xodimlar tayyorlash
- raqamli va jismoniy mobillik dasturlari
- kompaniyalar uchun maslahat xizmatlari
- kommunikatsiya va tadbirlar
- strategik rejajashtirish
- korxona bazasida o'qitish
- o'quv dasturlar va strategiyalarni birgalikda ko'rib chiqish
- ko'nikmalarni baholash

Kutilayotgan natijalar:

- Markaziy Osiyo universitetlarining Yashil kun tartibini ilgari surishdagi faol ishtiroki
- takomillashtirilgan va yangi o'quv dasturlari
- yangilangan strategiyalar va boshqaruv amaliyotlari
- Yashil kelishuv sohasida xalqaro bilim almashuvi va tarqatilishi uchun platforma
- universitetlar va kompaniyalar o'rtaсидаги hamkorlikning rivojlanishi

Loyihadan foyda oluvchi shaxslar soni (taxminiy):

- Bakalavriat va magistratura talabalari – **10 000**
- Qayta tayyorlash (davomiy ta'lif) dasturlaridagi talabalar – **3 000**
- O'qituvchilar va texnik xodimlar – **200**
- Kompaniyalar rahbariyati – **100**
- Umumiy jamoatchilik va ekologik tashkilotlar vakillari – **50 000** (GDCentre faoliyatida ishtirok etuvchilar)

Germany: Constructor University Bremen gGmbH

(CUB) - coordinator

Slovakia: Slovak University of Agriculture in Nitra (SUA)

Austria: University for Continuing Education Krems (UWK)

Kazakhstan:

Eurasian Technological University (ETU)

Karaganda Industrial University (KarIU)

Uzbekistan:

Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural

Mechanization Engineers (National Research University)

(TIIAME)

Tashkent Kimyo International University (KIUT)

Kyrgyzstan:

University of Central Asia Kyrgyzstan (UCAK)

Bishkek State University (BSU)

Tajikistan:

University of Central Asia Tajikistan (UCAT)

Khorog State University (KSU)


Turkmenistan:

Yagshygeldi Kakayev International University of Oil and

Gas (IOGU)

International Horse Breeding Academy Named After Ahs

Annaev (IHBA)



Konsorsium quyidagi universitet va tashkilotlarni o'z ichiga oladi:

- **Constructor University Bremen (Germaniya)** – Konsorsium koordinatori
- **Slovak Qishloq Xo'jaligi Universiteti, Nitra (Slovakiya)**
- **Eurasian Technological University, Olmaota (Qozog'iston)**
- **Karaganda Industrial University, Temirtau (Qozog'iston)**
- **Donau-Universität Krems (Avstriya)**
- **Bishkek State University (Qirg'iziston)**
- **Yagshygeldi Kakayev nomidagi Neft va Gaz Xalqaro Universiteti (Turkmaniston)**
- **ABA Annayew Akademiyasi, Arkadag shahri (Turkmaniston)**
- **Khorog State University (Tojikiston)**

- **Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti (O'zbekiston)**
- **TIQXMMI-Milliy tadqiqot universiteti (O'zbekiston)**
- **University of Central Asia - Naryn (Qirg'iziston)**
- **University of Central Asia - Khorog (Tojikiston)**
- **Green Investment Group LLP (Qozog'iston)** – Hamkor tashkilot
- **Toshkent shahar Ekologiya partiyasi** – Hamkor tashkilot
- **AIFC Green Finance Centre Ltd (Qozog'iston)** – Hamkor tashkilot

TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetidagi bog'lanish uchun shaxs

Sherzod Raxmonov

Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i

Email: sherzod.rakhmonov@gmail.com